

QALAMTASVIRDA SOYA-YORUG’LIKLER QONUNI

Axatova Yorqinoy Axrarovna

(O’zbekiston) Navoiy shahar Karmana tumani 2-sod Bolalar musiqa va san’at məktəbida tasviriyy san’at sinfi II toifa o’qituvchisi

Annotasiya

Ushbu maqolada Qalamtasvir fani badiiy, badiy pedagogik ta’lim va estetik tarbiyada bo’lajak rassom, rassom-pedagoglarni tarbiyalashda asosiy o’quv fanlaridan hisoblanadi. Unda qalamtasvirning soya-yorug’likler qonun qoidalari tasvirlashga qaratilgan.

Kalit sozlar

ta’lim, tarbiya, kasbiy mahorat, qalam tasvir, rang tasvir, yorug’lik, soya.

Аннотация

В данной статье наука о рисовании карандашом рассматривается как один из основных учебных предметов в воспитании будущих художников и художников-педагогов художественно-педагогического и эстетического воспитания. Основное внимание уделяется описанию правил тени и света карандашного рисунка.

Ключевые слова

образование, обучение, профессиональные навыки, рисунок карандашом, живопись, свет, тень.

Annotation

In this article ,the science of pencil drawing is conserved one of the main educational subjects in the education of future artists and artist pedagogues in art pedagogical education and aesthetic education .It focuses on describing the rules of shadow and light of pencil drawing.

Key words

education, training, professional skills, pencil drawing, painting, light, shadow.

Buyumlarning hajmli shakli rasmida nafaqat sirtlarning perspektiv qisqarishlarini hisobga olingan holdagi yasashlar yordamida, balki yorug’ va soya yordamida ham beriladi.

Yorug’ va soya (yorug’-soya) borliqdagi predmetlarni, ularning hajmini va fazoviy holatini tasvirlashning juda muhim vositasi hisoblanadi.

Yorug’-soyadan musavvirlar xuddi perspektiva kabi juda qadimdan foydalanib keladilar. Bu vosita yordamida ular rasmida va rang-tasvirda predmetlarning shaklini, hajmini, fakturasini shunday ishonchli tasvirlashni o’rganib oladilarki, ular go’yo jonli bo’lib ko’rinadigan tasvirlardan iborat asarlar yaratish imkoniga ega bo’ladilar. Yorug’-soya tasvirlanayotgan natura bilan birga, uni o’rab turgan atrof muhitni asarning maqsadiga muvofiq ma’no-mazmunni ifoda eeteadigan holda tasvirlashga ham yordam beradi.

Musavvirlar yorug’-soyaning o’rta asrlarda yaratilgan qoidalardan hozirgi davrga qadar foydalanib kelmoqdalar, shu bilan birga, bu qoidalarni takomillashtirib, rivojlantirish ustida ham ishlamoqdalar.

Musavvir E.de Vitte (“Cherkovning ichki ko’rinishi”), A.Grimshou (“Temiza uzra oqshom”), Latur (Avliyo Iosif - duradgor”), E.Dega (“Balet repetitsiyasi”) o’z asarlarida turli yorug’lik manbalaridan kelayotgan yorug’larni tasvirlaganlar, bunda e’tibor bering.




Siz bu asarlarda Quyosh va Oydan kelayotgan tabiiy yorug’likni ham, sham, lampa, projektordan kelayotgan sun’iy (inson tomonidn yaratilgan) yorug’likni ham ko’rishingiz mumkin.

Teatrda yoritishga alohida yondashiladi, axir bejizga u yerda yoritish bo'yicha mutaxassis-musavvirlar ishlanmaydi. Ular hayratlanarli yorug’lik effektlarini, yorug’ yordamida “rang-tasvir” va “grafika”ning ajoyib sehrli olaminI yaratadilar.

Rasm bajaradigan talaba oldida tus munosabatlari, narsaning hajmini ifodalash “o’xhashligi” vazifasi turadi. Mazkur vazifani muvaffaqiyatli bajarilishishakl va hajmni soya-yorug’vositalari orqali ko’rsatib berilishga bog’liq. Bu uchun hajm, “shakl” tushunchasini bilishlari muhum o’rin tutadi. Barcha hajmli predmetlar uch o’lcham bo’yi, eni va balandligi orqali aniqlanadi. Demak narsaning hajmi deganda uni tekisliklar bilan chegaralangan uch o’lchamli kattaligini tushunilar ekan. Shakl - bu predmetning tashqi ko’rinishi, ya’ni rassom o’tirgan joydan narsaning ko’rinadigan tomonlari tushuniladi.

Hajmiy shaklni his eta bilish, qalamtasvirning mayjud shizish usullari xuddi mana shu vazifani bajarishga qaratilgan bo’lishi shart. Rasm chizadigan kishiga predmetning ko’rinadigan shakli uning soya-yorug’ligi bilan belgilanadi, ko’z orqali qabul qilingan shakl xuddi shunday rassom tomonidan rasmda takrorlanadi.

Yorug’lik shakl bo'yicha tarqalib, eng yorug’ joydan tushuvchi soyagacha turli tusda bo’ladi. Shunday qilib, yorug’-soya degan tushuncha paydo bo’ladi. Misol sifatida yorug’lik tushib turgan silindr qaralsa, yorug’lik manbaiga qaratilgan silindrning old tomoni ko’zga yorug’ bo’lib ko’rinadi.



Sun’iy manbalar yorug’ligini biz o’z xohishimizga ko’ra o’zgartirishimiz mumkin, tabiiy yorug’lik esa, o’zi o’zgaradi, masalan, Quyosh ba’zan yorqin yorug’lik sochibtursa, ba’zan bulutlar orqasiga berkinadi.

Bulutlar Quyosh yorug’ini to’sganda, yorug’ va soya orasidagi keskinlik yumshaydi, yorug’dagi va soyalardagi yoritilganlik tenglashadi. Bunday sokin yoritilganlikni yorug’li tonal yoritilganlik deyiladi.

U rasmida yarim soyalarning katta miqdorini berish imkoniyatini yaratadi.

Quyosh yorug’ligining ko’plab holatlari borki, u ma’lum bir manzarani keskin o’zgartirib yuborishi va hatto sizning kayfiyatizingizga ham ta’sir ko’rsatishi mumkin.

Quyoshning yorqin yorug’ida manzara quvonchli ko’rinadi., bulutli kunda esa, g’amgin ko’rinadi.

Erta tongda hali quyosh usqdan unchalik baland ko’tarilmay turib, uning yorug’ligi yer sirti uzra tarqala boshlaganda predmetlarning konturlari noaniqroq bo’ladi, go’yo hamma narsa biroz tutun bilan o’ralgandek.

Tush paytida yorug’ va soya keskinliklari kuchayadi, detallar aniq ko’rina boshlaydi.

Botayotgan Quyosh yorug’lidan esa, tabiat sirli va romantik ko’rinishi mumkin, ya’ni manzaradan olinadigan emotsiyonal taassurot ko’pincha yoritilganlikka bog’liq bo’ladi.

Rangni idrok etish ham ko’proq yoritilganlikka bog’liq, agar biz qalamtasvirda fazoni chiziqli perspektiva yordamida bera olsak, rangtasvirda esa, naturaning rang va tus nisbatlari uning tomoshabindan yoki yorug’lik manbaidan uzoq-yaqinligiga bog’liq holda o’zgarishlarini hisobga olmaslik mumkin emas.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1.Boymetov B.Qalam tasvir.Pedagogika universitetlari uchun o’quv qo’llanma.Toshkent 1977.

2.O’zbekiston san’ati mualliflar guruhi.Sharq .2001

3.O’zbekiston Badiiy akademiyasi Axborotnomasi 1-son,T, SITI. 2000.

4.Jalolov Bahodir Toshkent 1999yil.